SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

"TILLARNI O'QITISH" KAFEDRASI

Xalqaro ta'lim tizimi va xorijiy tillar:

innovation yondashuvlar va modernizatsiya istiqbollari

XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN

7-8 MAY



Samarkand-2026

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАЦИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

SAMARKAND INSTITUTE OF ECONOMICS AND SERVICE

САМАРКАНДСКИЙ ИНСТИТУТ ЭКОНОМИКИ И СЕРВИСА

“TILLARNI O‘QITISH” KAFEDRASI

DEPARTMENT OF LANGUAGE TEACHING

КАФЕДРА «ПРЕПОДАВАНИЕ ЯЗЫКОВ»

“XALQARO TA’LIM TIZIMI VA XORIJIY TILLAR: INNOVATSION YONDASHUVLAR VA MODERNIZATSIYA ISTIQBOLLARI”

“INTERNATIONAL EDUCATION SYSTEM AND FOREIGN LANGUAGES:INNOVATIVE APPROACHES AND PROSPECTS FOR MODERNIZATION”

«МЕЖДУНАРОДНАЯ СИСТЕМА ОБРАЗОВАНИЯ И ИНОСТРАННЫЕ ЯЗЫКИ: ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ МОДЕРНИЗАЦИИ»

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman konferensiya
MATERIALLARI

International scientific conference
PROCEEDINGS

Материалы Международной научно-практической конференции

2026-yil 7-8- may
May 7–8, 2026
7–8 мая 2026 года

Samarqand – 2026
Samarkand – 2026
Самарканд – 2026

UO‘K: 37.091.31:81’243(08)
KBK: 74.5+81.2
O’ 80

“Xalqaro ta’lim tizimi va xorijiy tillar: innovatsion yondashuvlar va modernizatsiya istiqbollari” xalqaro ilmiy-amaliy anjuman konferensiya materiallari. – Samarqand: “© “FAN BULOG‘I” nashriyoti, Samarqand – 2026 yil., – 250 bet.

Taqrizchilar

M.B.Begmatov SamDCHTI, professori.
S.A.Odilova SamISI, dotsenti.

TAHRIR HAY’ATI

M.E.Pulatov - Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektori
O.M.Pardayev - Ilmiy ishlar va innovatsiyalar prorektori
T.S.Sharipov o‘quv ishlari prorektori
I.B.Mattiyev (p.f.d), professor
T.K.Mardiyev (f.f.d), dotsent
R.D.Samandarov (PhD), dotsent
S.B.Kipchakova – dotsent v.b.
O‘.Ya. Ostonov - dotsent v.b.

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi

“Tillarni o‘qitish” kafedrasi o‘qituvchilari:
N. O‘razova
N. Axmedova
O‘. Bolbekova

Sahifalovchi: **D. Samatova**

Maqolalar mualliflar tahririda bosilmoqda. Ularda keltirilgan raqamlar, faktlar, xulosa va tavsiyalarga mualliflar mas’ul. Ularning ayrim fikrlari tashkiliy guruh qarashlariga to‘g‘ri kelmasligi mumkin.

ISBN: 978-9910-689-90-1

© “FAN BULOG‘I” нашриёти, Самарқанд – 2026 йил.

XALQARO TA’LIM TIZIMI VA XORIJIY TILLAR: INNOVATSION YONDASHUVLAR VA MODERNIZATSIYA ISTIQBOLLARI

SamISI prorektori, i.f.d., professor O. Pardayev

Mamlakatimizda turli sohalarning rivojlanishida xorijiy davlatlar bilan yo‘lga qo‘yilgan barqaror hamkorlik aloqalari muhim rol o‘ynaydi. Bunday hamkorlikni samarali amalga oshirish uchun esa o‘sha davlatlarning tillarini bilish zarur. Bu holat, o‘z navbatida, xalqaro miqyosda chet tillarini o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojning ortishiga olib kelmoqda. Natijada jamoalar tobora ko‘p tilli va ko‘p madaniyatli tus olib, til o‘rganish jarayonida innovatsion yechimlarni qo‘llash muammolarini hal etishda muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Bu yo‘nalishda “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli farmon hamda 2021 yil 19 maydagi PQ-5117-son qarorida belgilangan vazifalarni amalga oshirish alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur hujjatlarda fundamental fanlar bilan bir qatorda tilshunoslik va adabiyotshunoslik sohalarida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalarini amaliyotga joriy etish zarurligi ta’kidlangan bo‘lib, bu biz zimmasiga yuklatilgan muhim va mas’uliyatli vazifalardan biridir.

Oliy ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish, xorijiy tillarni o‘qitishning kompleks tizimini takomillashtirish, shuningdek, ilg‘or xorijiy tajribalarni milliy ta’lim tizimiga joriy etish, ularni chuqur o‘rganish va tahlil qilish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. O‘tkazilayotgan ushbu Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman O‘zbekiston Respublikasida Oliy ta’lim fan va innovatsiyalar vazirligining 2026 yil 16 yanvardagi 11-sonli buyrug‘iga muvofiq **— “Xalqaro ta’lim tizimi va xorijiy tillar: innovatsion yondashuvlar va modernizatsiya istiqbollari”** mavzusiga bag‘ishlanadi.

Mazkur Xalqaro ilmiy-nazariy anjumanni o‘tkazishdan maqsad hukumatimizning ilm fanini rivojlantirish sohasidagi qaror hamda buyruqlari asosida xorijiy tilshunoslik va adabiyotshunoslikning qiyoiy-tipologik tahlili xususida taniqli tilshunos va adabiyotshunos olimlarning fikrlarini umumlashtirish, ilm-fanga layoqatli yoshlarni kashf etish, ularda ilm-fan va texnologiyalarga rag‘batni kuchaytirish kabilardan iborat. Anjumanda Koreya, Hindiston, Pokiston, Tojikiston, Qozog`iston va boshqa bir qator oliy ta’lim muassasalarining yetuk olimlari hamda tadqiqotchilari ishtirok etishlari kutilmoqda.

O‘ylaymizki, ishtirokchilar anjumanda soha ilm-fani va ta’limi samaradorligini oshirish yuzasidan muhim xulosalar ishlab chiqadilar hamda kelgusi rejalar belgilab olinadi va ilmiy izlanishlarda tadqiq qilinmagan dolzarb mavzular aniqlanib, yangi tadqiqotlar uchun zamin yaratiladi.

Bugungi Xalqaro ilmiy-nazariy anjuman ishiga muvaffaqiyatlar tilar ekanman, mazkur tadbirda ko‘riladigan masalalar barcha olimlar, tadqiqotchilar va magistrantlarga o‘z ilmiy faoliyatlarida muhim o‘rin egallashiga ishonaman.

I SHO‘BA: XORIJIY TILLARNI O‘QITISHDA KADRLAR SIFATINI OSHIRISH VA INNOVATSION PEDOGOGIK TEXNOLOGIYALAR HAMDA UNING ISTIQBOLLI YO‘LLARI

ПРОБЛЕМЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА И ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ПРЕПОДАВАНИЯ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти Фалсафа фанлари доктори (PhD)**, Ф.А.Темирова,**
Давронова Дилдора, Рахимова Гульсевар, Эркинов Равшан СамИСИ талабалари

Аннотация: В данной научной статье анализируется опыт развитых стран и важность инновационных технологий в повышении качества преподавания иностранных языков. В исследовании подчеркивается роль современных педагогических подходов, цифровых платформ и интерактивных методов. Также подробно анализируются существующие проблемы в системе образования, включая недостаток технологической инфраструктуры, цифровой компетентности преподавателей и недостатки методического подхода, и разрабатываются практические предложения по их устранению.

Ключевые слова: иностранные языки, инновационные технологии, цифровое образование, интерактивные методы, компетентность, качество образования, педагогика, онлайн-платформы, смешанное обучение, ИИ.

Abstract: This research article analyzes the experience of developed countries and the importance of innovative technologies in improving the quality of foreign language teaching. The study emphasizes the role of modern pedagogical approaches, digital platforms, and interactive methods. It also provides a detailed analysis of existing challenges in the education system, including the lack of technological infrastructure, digital competence of teachers, and shortcomings in the methodological approach, and develops practical proposals for addressing them.

Keywords: foreign languages, innovative technologies, digital education, interactive methods, competence, quality of education, pedagogy, online platforms, blended learning, AI.

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot maqolasida rivojlangan mamlakatlar tajribasi va xorijiy tillarni o‘qitish sifatini oshirishda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda zamonaviy pedagogik yondashuvlar, raqamli platformalar va interaktiv usullarning roli ta'kidlangan. Shuningdek, unda ta'lim tizimidagi mavjud muammolar, jumladan, texnologik infratuzilmaning yo‘qligi, o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasi va metodologik yondashuvdagi kamchiliklar batafsil tahlil qilinadi va ularni hal qilish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: xorijiy tillar, innovatsion texnologiyalar, raqamli ta'lim, interaktiv usullar, kompetensiya, ta'lim sifati, pedagogika, onlayn platformalar, aralash o‘qitish, AI.

Введение. В современном процессе глобализации знание иностранных языков является важным фактором не только для личностного развития, но и для экономического и социального развития государства. Эффективность системы преподавания иностранных языков во многом зависит от уровня применения современных педагогических подходов и инновационных технологий. Опыт развитых стран показывает, что отказ от традиционных методов обучения иностранным языкам и переход к интерактивным, коммуникативным и технологическим подходам дает высокие результаты. В частности, цифровые платформы, программы на основе искусственного интеллекта и онлайн-образовательные инструменты значительно повышают эффективность процесса изучения языка. В Республике Узбекистан также проводятся масштабные реформы по развитию преподавания иностранных языков. В частности, внедряются новые учебные программы, системы оценки, соответствующие международным стандартам, и современные технологии. Однако в этом процессе существует ряд проблем, препятствующих полной эффективности системы.

Обзор литературы. Вопросы преподавания иностранных языков широко изучались в международной научной литературе. В частности, в европейских странах широко используется коммуникативный подход к обучению языку (КТЯ), основанный на изучении языка посредством практического диалога. В отчетах ОЭСР и ЮНЕСКО подчеркивается, что использование цифровых технологий в современной системе образования является одним из важных факторов повышения качества образования. В частности, модель смешанного обучения повышает эффективность за счет сочетания традиционного и онлайн-образования. Также платформы на основе искусственного интеллекта, такие как языковые учебные программы, адаптируются к индивидуальному темпу обучения студентов и обеспечивают персонализированное образование. В национальной научной литературе вопросы совершенствования преподавания иностранных языков изучаются в рамках образовательных реформ, проводимых в Узбекистане. В частности, государство реализует ряд мер по поощрению изучения иностранных языков, повышению квалификации учителей и внедрению современных технологий.

Анализ и результаты. Анализ показывает, что использование инновационных технологий в преподавании иностранных языков дает следующие положительные результаты:

Во-первых, повышается интерес и мотивация учащихся к занятиям. Интерактивные платформы, мобильные приложения и мультимедийные инструменты делают образовательный процесс интересным.

Во-вторых, образовательный процесс индивидуализирован. Каждый ученик имеет возможность учиться в соответствии со своим уровнем знаний.

В-третьих, языковые навыки развиваются комплексно. Навыки аудирования, говорения, чтения и письма формируются одновременно.

В то же время были выявлены и существующие проблемы:

• недостаточное развитие технологической инфраструктуры;
• низкая цифровая компетентность учителей;
• недостаток навыков использования современных методик;
• наличие различий в качестве образования между сельской и городской местностью;
• отрыв учебных программ от практики.

В частности, некоторые образовательные учреждения имеют технологии, но их эффективное использование низкое, что указывает на неполное внедрение инновационных подходов.

Выводы и предложения. Приведенный выше анализ показывает, что развитие системы преподавания иностранных языков является одним из приоритетных направлений современной образовательной политики. В современных условиях уровень владения языком становится важным фактором, определяющим не только личный успех, но и конкурентоспособность страны на международной арене. Поэтому вопрос повышения качества преподавания иностранных языков требует комплексного подхода, то есть гармоничного развития педагогических, технологических и организационных аспектов. Результаты исследования показывают, что широкое внедрение инновационных технологий в образовательный процесс значительно повышает эффективность изучения иностранных языков. В частности, цифровые платформы, программы на основе искусственного интеллекта и интерактивные методы позволяют студентам развивать навыки самостоятельной работы, адаптироваться к индивидуальным потребностям и организовывать учебный процесс более интересно и эффективно. Однако текущая ситуация показывает, что эти возможности используются не в полной мере, и это в основном связано с недостаточным развитием технологической инфраструктуры и отсутствием современных компетенций педагогического персонала. Также становится очевидным, что прямое внедрение зарубежного опыта не всегда дает ожидаемые результаты. Поскольку система образования каждой страны имеет свои социальные, культурные и экономические условия, важно

адаптировать передовой опыт к национальной системе, обрабатывать его с учетом местных потребностей. В частности, качество образования можно вывести на новый уровень за счет широкого внедрения коммуникативных подходов, смешанного обучения и компетентностно-ориентированных методов преподавания. С практической точки зрения необходимо реализовать ряд системных мер по устранению существующих проблем в преподавании иностранных языков. В частности, важно обеспечить образовательные учреждения современными техническими средствами, улучшить интернет-инфраструктуру и создать широкий доступ к цифровым образовательным ресурсам. Одновременно необходимо радикально улучшить систему подготовки и повышения квалификации педагогических кадров. Преподаватели должны не только отлично владеть языком, но и обладать навыками эффективного использования современных технологий и инновационных методов. Кроме того, неотложными задачами являются совершенствование учебных программ, их ориентация на практику и адаптация к международным стандартам. За счет увеличения доли упражнений, основанных на реальных коммуникативных ситуациях, в учебном процессе, наряду с теоретическими знаниями, можно еще больше укрепить языковые навыки учащихся. В то же время необходимо пересмотреть систему оценки в соответствии с современными требованиями и внедрить механизмы, позволяющие определить реальные знания и навыки учащихся. Важной задачей также является сокращение региональных различий. В частности, качество образования и уровень ресурсного обеспечения относительно низки в отдаленных районах. Поэтому важно поддерживать учителей, работающих в таких районах, внедрять для них дополнительные меры стимулирования и обеспечивать их современными технологиями. В целом, подготовку высококвалифицированных, ориентированных на глобальные потребности и конкурентоспособных кадров можно осуществить посредством комплексной модернизации системы преподавания иностранных языков, широкого внедрения инновационных технологий и эффективной адаптации международного опыта. Это окажет прямое положительное влияние не только на развитие системы образования, но и на социально-экономическое развитие страны.

Список литературы

1. Постановления Президента Республики Узбекистан о развитии иностранных языков.

2. Закон Республики Узбекистан «Об образовании». – Ташкент, 2020.

3. ОЭСР. Доклад о перспективах образовательной политики. – Париж, 2023.

4. ЮНЕСКО. Доклад о цифровом образовании. – Париж, 2022.

5. Британский совет. Стратегия преподавания английского языка. – Лондон, 2021.

6. Издательство Кембриджского университета. Методы преподавания языков. – Кембридж, 2020.

7. https://lex.uz

8.https://unesco.org

9.https://oecd.org

XORIJIY TILLARNI O‘QITISH BO‘YICHA KADRLAR SIFATINI OSHIRISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING ROLI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

I.B.Mattiyev SamISI “Tillarni o‘qitish” kafedrasi professori,
pedagogika fanlari doktori +998932240076 ilhom_matiev@gmail.uz

Annotatsiya: Mazkur maqolada xorijiy tillarni o‘qitish tizimida pedagog kadrlar sifatini oshirish jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarning o‘rni va rivojlanish istiqbollari ilmiy jihatdan tahlil etiladi. Zamonaviy ta’lim muhitida raqamli texnologiyalar, interfaol metodlar va kompetensiyaviy yondashuvning o‘qituvchilar kasbiy rivojlanishiga ta’siri yoritiladi. Ta’lim

jarayonini modernizatsiya qilish va samaradorlikni oshirishga xizmat qiluvchi asosiy yo‘nalishlar aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: xorijiy til ta’limi, pedagog kadrlar sifati, innovatsion texnologiyalar, raqamli ta’lim, interfaol metodlar, kompetensiyaviy yondashuv, kasbiy rivojlanish, ta’lim modernizatsiyasi, o‘qituvchi kompetensiyasi, blended learning, metodik yondashuv, ta’lim samaradorligi.

Abstract: This article provides a scientific analysis of the role and development prospects of innovative pedagogical technologies in improving the quality of teaching staff within the system of foreign language education. It highlights the impact of digital technologies, interactive methods, and the competency-based approach on teachers’ professional development in a modern educational environment. The study identifies the main directions that contribute to the modernization of the educational process and the improvement of its effectiveness.

Keywords: foreign language education, teacher quality, innovative technologies, digital education, interactive methods, competency-based approach, professional development, educational modernization, teacher competence, blended learning, methodological approach, learning effectiveness.

Аннотация: В данной статье проводится научный анализ роли и перспектив развития инновационных педагогических технологий в процессе повышения качества педагогических кадров в системе обучения иностранным языкам. Освещается влияние цифровых технологий, интерактивных методов и компетентностного подхода на профессиональное развитие преподавателей в современной образовательной среде. В исследовании определяются основные направления, способствующие модернизации образовательного процесса и повышению его эффективности.

Ключевые слова: иноязычное образование, качество педагогических кадров, инновационные технологии, цифровое образование, интерактивные методы, компетентностный подход, профессиональное развитие, модернизация образования, компетенции учителя, смешанное обучение, методический подход, эффективность обучения.

Bugungi globallashuv jarayonlari ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlariga, xususan, xorijiy tillarni o‘qitish metodologiyasiga tub o‘zgarishlarni olib kirmoqda. Xalqaro integratsiya, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi hamda kommunikativ ehtiyojlarning ortishi xorijiy tillarni o‘rganishni nafaqat ta’limiy, balki strategik ijtimoiy-iqtisodiy omil sifatida dolzarblashtirmoqda. Shu nuqtai nazardan, pedagog kadrlar sifati ta’lim tizimining samaradorligini belgilovchi asosiy indikatorlardan biri sifatida qaralmoqda. [1].

Zamonaviy pedagogika fanida o‘qituvchi shaxsining roli sezilarli darajada transformatsiyaga uchramoqda. An’anaviy “bilim beruvchi” model o‘rnini innovatsion yondashuvlarga asoslangan “ta’limni boshqaruvchi, yo‘naltiruvchi va fasilitator” modeli egallamoqda. Bu esa o‘qituvchidan yuqori darajadagi kasbiy kompetensiya, raqamli savodxonlik, metodik moslashuvchanlik hamda kreativ pedagogik fikrlashni talab etadi[2]. Xorijiy tillarni o‘qitish amaliyotida bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan, pedagog kadrlarning innovatsion texnologiyalardan foydalanish darajasining yetarli emasligi, raqamli ta’lim vositalarini integratsiya qilish bo‘yicha metodik tajribaning cheklanganligi hamda individual ta’lim traektoriyalarini loyihalash ko‘nikmalarining sustligi ta’lim sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda[3]. Ushbu holat pedagogik tizimni modernizatsiya qilish zaruratini yanada kuchaytiradi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar, jumladan, blended learning, flipped classroom, gamification, virtual ta’lim muhitlari va sun’iy intellektga asoslangan adaptiv o‘qitish tizimlari ta’lim jarayonining sifat jihatdan yangi bosqichga o‘tishini ta’minlamoqda. Ushbu texnologiyalar o‘quvchilarning faolligini oshirish bilan birga, o‘qituvchining metodik faoliyatini optimallashtirishga ham xizmat qiladi[4]. Shu sababli ularni ta’lim tizimiga keng joriy etish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Pedagog kadrlar sifatini oshirish jarayoni faqat malaka oshirish yoki qisqa muddatli treninglar bilan cheklanib qolmaydi. Bu jarayon uzluksiz kasbiy rivojlanish, refleksiv tahlil, innovatsion faoliyat va raqamli kompetensiyalarni integratsiyalashgan holda shakllantiriladigan

kompleks tizim sifatida qaralishi lozim[5]. Ayniqsa, xorijiy til o‘qituvchilarida kommunikativ kompetensiya bilan bir qatorda texnologik kompetensiyani rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning maqsadi - xorijiy tillarni o‘qitishda pedagog kadrlar sifatini oshirishda innovatsion pedagogik texnologiyalarning rolini ilmiy jihatdan asoslash va ularning rivojlanish istiqbollarini aniqlashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: innovatsion pedagogik texnologiyalar mazmunini tahlil qilish; pedagog kadrlar sifatiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash; raqamli ta’lim vositalarining samaradorligini baholash; xorijiy tajribalarni qiyosiy o‘rganish hamda istiqbolli rivojlanish yo‘nalishlarini asoslashdir.

1. Innovatsion pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslari. Zamonaviy ta’lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalar ta’lim samaradorligini oshirish va o‘quv jarayonini modernizatsiya qilishning asosiy vositasi sifatida qaraladi. Ushbu texnologiyalar an’anaviy o‘qitish modelidan farqli ravishda o‘quvchini faol subyekt sifatida shakllantiradi, uning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantiradi. N.A. Muslimov va U. Mahkamovning ilmiy ishlarida pedagogik texnologiyalar o‘qituvchi faoliyatini tizimli tashkil etish va natijaviylikka yo‘naltirish vositasi sifatida talqin qilinadi[1]. Ularning fikricha, innovatsion yondashuv ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda metodik asos bo‘lib xizmat qiladi. Rossiyalik olim V.P. Bespalko esa pedagogik texnologiyani “oldindan rejalashtirilgan natijaga olib boruvchi ta’lim jarayoni modeli” sifatida izohlaydi[2]. Bu yondashuv bugungi kunda xorijiy tillarni o‘qitishda keng qo‘llanilmoqda.

2. Pedagog kadrlar kompetensiyasining ilmiy talqini. Pedagog kadrlar sifati murakkab ko‘p komponentli tizim bo‘lib, u kasbiy bilim, metodik tayyorgarlik, kommunikativ kompetensiya va raqamli savodxonlikni o‘z ichiga oladi. A. Avliyoqulov pedagogik kompetensiyani o‘qituvchining kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirishga tayyorlik darajasi sifatida belgilaydi[3]. Shuningdek, K. Xoshimov va J. Yo‘ldoshev o‘qituvchining metodik mahoratini ta’lim sifatini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida ko‘rsatadi[4]. Xorijiy til o‘qituvchilari uchun kommunikativ kompetensiya bilan bir qatorda lingvodidaktik va AKT kompetensiyasi ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu zamonaviy ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylangan.

3. Raqamli pedagogika va innovatsion muhit. Raqamli pedagogika zamonaviy ta’limning eng muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishni nazarda tutadi. Elektron ta’lim platformalari, mobil ilovalar va sun’iy intellekt asosidagi tizimlar o‘qitish jarayonini yangi sifat bosqichiga olib chiqmoqda. E.S. Polat o‘z tadqiqotlarida raqamli ta’lim muhitining o‘quvchilarning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi rolini alohida ta’kidlaydi[5]. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar o‘qituvchiga o‘quv jarayonini individuallashtirish, differensial yondashuvni amalga oshirish va real vaqt rejimida natijalarni tahlil qilish imkonini beradi.

4. Innovatsion texnologiyalarning amaliy samaradorligi. Amaliy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, innovatsion pedagogik texnologiyalar qo‘llanilgan ta’lim muhitida o‘quvchilarning xorijiy tilni o‘zlashtirish darajasi sezilarli darajada yuqori bo‘ladi. Interfaol metodlar o‘quvchilarning darsdagi faolligini oshirib, mustaqil bilim olishga motivatsiya yaratadi. N. Saidahmedovning ilmiy izlanishlarida interfaol metodlarning ta’lim samaradorligini oshirishdagi roli keng yoritilgan[6]. Shuningdek, blended learning modeli an’anaviy va raqamli ta’limni uyg‘unlashtirib, o‘quv jarayonining moslashuvchanligini ta’minlaydi. Bu esa o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga mos ta’lim tashkil etish imkonini beradi.

5. Muammolar va rivojlanish istiqbollari. Bugungi kunda pedagog kadrlarning innovatsion texnologiyalardan foydalanish darajasi yetarli emasligi muammo bo‘lib qolmoqda. Bu holat asosan metodik tayyorgarlikning yetarli emasligi, raqamli kompetensiyaning sust rivojlanganligi va amaliy tajribaning yetishmasligi bilan izohlanadi. P.F. Kapterev pedagog shaxsining rivojlanishi uzluksiz jarayon ekanligini ta’kidlab, o‘qituvchining doimiy o‘z ustida ishlashi zarurligini asoslab beradi[7]. Kelajakda sun’iy intellekt, adaptiv ta’lim tizimlari va virtual reallik texnologiyalarining ta’limga keng joriy etilishi kutilmoqda. Bu esa pedagog kadrlar sifatini yangi bosqichga olib chiqadi.

Xorijiy tillarni o‘qitish jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni samarali joriy etish o‘qituvchining kasbiy faoliyatini tubdan o‘zgartiradi. Bu jarayon nafaqat metodik yangilanishni, balki ta’limning mazmuniy va tashkiliy jihatdan modernizatsiyasini ham talab qiladi. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish bir necha bosqichda amalga oshiriladi: dastlab o‘qituvchilarning tayyorgarlik darajasi tahlil qilinadi, keyin esa ularni raqamli vositalar va interfaol metodlardan foydalanishga o‘rgatish jarayoni tashkil etiladi.

Ilmiy-nazariy ahamiyatga ega takliflar:

Birinchidan, innovatsion pedagogik texnologiyalarni xorijiy til ta’limi tizimiga integratsiya qilish jarayonini pedagogik tizim sifatida nazariy jihatdan asoslash zarur. Bunda kompetensiyaviy yondashuv, konstruktivizm va kommunikativ metodika o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ilmiy jihatdan chuqur o‘rganish muhim hisoblanadi.

Ikkinchidan, pedagog kadrlar sifatini oshirish modelini ishlab chiqishda raqamli pedagogika va an’anaviy metodika integratsiyasiga asoslangan ko‘p darajali (multilevel) tizim yondashuvini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Uchinchidan, xorijiy til o‘qituvchisining innovatsion kompetensiyasi tarkibini nazariy jihatdan aniqlashtirish, uni kommunikativ, metodik, raqamli va refleksiv komponentlarga ajratgan holda ilmiy tasniflash zarur.

Amaliy ahamiyatga ega tavsiyalar

Birinchidan, ta’lim muassasalarida xorijiy tillarni o‘qitishda blended learning, flipped classroom va gamification kabi innovatsion texnologiyalarni tizimli joriy etish lozim.

Ikkinchidan, pedagog kadrlarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish maqsadida maxsus treninglar, malaka oshirish kurslari va onlayn platformalar asosida uzluksiz o‘qitish tizimini yo‘lga qo‘yish zarur.

Uchinchidan, har bir ta’lim muassasasida innovatsion metodik markazlar tashkil etish orqali o‘qituvchilarning zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan ishlash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish tavsiya etiladi.

To‘rtinchidan, xorijiy til o‘qitish jarayonida sun’iy intellekt asosidagi adaptiv ta’lim tizimlaridan foydalanishni bosqichma-bosqich kengaytirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muslimov N.A., Mahkamov U. Pedagogik kompetensiya asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2021. – 214 b.

2. Bespalko V.P. Pedagogika i progressivnye texnologii obucheniya. – Moskva: Pedagogika, 1989. – 192 s.

3. Avliyoqulov A. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019. – 256 b.

4. Xoshimov K., Yo‘ldoshev J. Ta’lim texnologiyalari va metodika. – Toshkent: Sharq, 2020. – 301 b.

5. Polat E.S. Sovremennye pedagogicheskie i informatsionnye texnologii. – Moskva: Akademiya, 2017. – 368 s.

6. Saidahmedov N. Pedagogik mahorat va innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2018. – 198 b.

7. Kapterev P.F. Pedagogika i psixologiya. – Sankt-Peterburg: Prosveshchenie, 1915 (qayta nashr 2005). – 412 s.

XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY TILLARNING INTELEKKTUAL TRANSFORMATSIYASI

Mardiyev Tulqin Kuliboyevich Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, dotsent.
Isoqulova Sojida Said qizi SamISI talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada xizmat ko‘rsatish sektorining zamonaviylashtiruvchi strategiyalarini rivojlantirish bo‘yicha jahon istiqbolli tendensiyalari hamda xorijiy til o‘rganishning iqtisodiyotdagi o‘rni tahlil qilingan. Tadqiqot jarayoni integratsion tahlil, tizimli pozitsiya va kvantitativ usulda xizmatlar amaliyotining umumbashariy xorijiy til o‘rganish dinamikasi haqida ma’lumot beradi.Shuningdek, raqamli xizmatlar hamda innovatsion texnologiyalarning qarshi ta’sir effektlari aynan Jahon Banki, UNCTAD, WTO va OECD ma’lumotlar bazasiga tayanib ko‘rib chiqilgan. O‘zbekistondagi xizmatlar sohasining jadallashtirish targ‘iboti, eksport salohiyatini yaxshilash hamda aholining xorijiy til o‘rganish salohiyatini oshirish bo‘yicha tavsiyalar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: xizmatlar sektori, raqamli transformatsiya, jahon tendensiyalari, iqtisodiy o‘sish, innovatsion texnologiyalar, eksport, raqobatbardoshlik, fintech, elektron tijorat.

Annotation: This article analyzes global prospective trends in developing modernization strategies for the service sector and their role in the post – industrial economy.The research process, based on integrative analysis, a systemic approach, and quantitative methods, provides information on the universal dynamics of service practices.In addition, the counter – impact effects of digital services and innovative technologies are examined with reference to the databases of the World Bank, UNCTAD, WTO, and OECD.Recommendations are also provided on accelerating the promotionof the service sector in Uzbekistan, improving its export potential, and enhancing the population’s foreign – language learning capacity.

Keywords: service sector, digital transformation, global trends, economic growth, innovative technologies, export, competitiveness, fintech, e-commerce.

Kirish. Hozirgi jadallik bilan rivojlanayotgan bu zamonda, xizmatlar sektorida ilmiy bilimlar, nomoddiy shakldagi to‘plamlar, axborot texnologiyalari va eng dolzarbi xorijiy tillarning xizmat ko‘rsatish sohasidagi o‘rni kabi iqtisodiy, ijtimoiy o‘sishning asosiy prinsiplari shakllanmoqda. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, xizmatlar sohasi global yalpi ichki mahsulotning 65-70 foizini tashkil etadi va bu dinamik ko‘rsatkich yildan – yilga chet tillar tatbig‘ini uyg’unlashtirgan holda o‘sib bormoqda.Jahon amaliyotida xizmat ko‘rsatish tarmog’i, ishlab chiqarish hamda qishloq xo‘jaligidan keyin uchinchi portative sektor sifatida e’tirof etilgan bo‘lsa-da, bugungi kunda u iqtisodiyotning yetakchi tarmog‘iga aylanib, ish o‘rinlarining ko‘pchiligini ta’minlaydi.[1] Xizmat ko‘rsatish jabhasining rivojlanishida xorijiy tillar xalqaro umumjahon bo‘lish hamkorligini mustahkamlaydi, turizm hamda mehmonxona industriyasini takomallashtiradi, ishchi – xodimlarning strategik jihatdan til o‘rganish malakasini oshiradi va ko‘pgina tarmoqlararo raqobatbardoshlikni targ‘ib qiladi. Qolaversa, texnologik birla chet tillarini bilishga intilish hamda boshqa yo‘nalishlardagi xizmatlar amaliyot sifatida targ‘ib qilinadi. Aynan ushbu tendensiya xorijiy tilllarni bilgan professional kadrlarni talab qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-yanvardagi “Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida’’[1]gi PQ-104-son farmoni ijrosini ta’minlash, shuningdek, Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasidan xizmatlar sohasini rivojlantirish uchun tijorat banklariga 150 million AQSH dollari ekvivalenti kredit liniyasi prinsipi joriy etilishi aytib o‘tilgan. Bundan tashqari, COVID-19 pandemiyasi xizmatlar sohasida tub o‘zgarishlarni super tezlikda tezlashtirdi. Shu sababli, xizmat ko‘rsatish sohasining barqaror takomallashishi samarali effektda chet tillarni o‘qitish texnologiyasining va innovatsion faollikni ta’minlashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Metadologiya. Xizmat ko‘rsatish tarmog‘ining sifatini oshirish, xalqaro standardlarda xorijiy til o‘rganish sektori va raqobatbardoshlik uchun faqat infratuzilma emas, balki til

[1] https://lex.uz/uz/docs/-5840284?ONDATE=28.02.2025 sayti

kommunikatsiyasidan innovatsion bilim talab qiladi. Masalan, Namangan davlat chet tillar institutining til mutaxassisligini chuqurlashtirish va tilni bilgan kadrlar bazasini kengaytirish uchun muhimdir va bu respublikada xizmat sanog‘iga bir zamin sifatida gavdalanadi. Xizmatlar sanoatining yillik o‘sish sur’ati 2024-yilda 6,7 foizni tashkil etgan bo‘lib, YaIM o‘sishiga taxminan 3,1 foiz punkt hissasini qo‘shgan. Qolaversa, xorijiy o‘quv - uslubiy tajriba ham bu yo‘nalishning istiqbolli konsepsiya ekanligini tasdiqlaydi. Misol tariqasida aytiladigan bo‘lsa, Jahon Bankining (2023) “The Promise of Service-Led Growth”[2] hisobotida ta’kidlanishicha, xizmatlar targ‘iboti iqtisodiy rag‘batlantirishda ishlab chiqarish sanoati bilan teng miqyosda xorijiy tillarning nufuzini oshirish dinamikasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekistonning so‘nggi yillaridagi iqtisodiy tarmog‘i super yuqori salohiyatga ega xizmat turlarining barqarorligini ta’minlashga hamda til o‘rganish istiqbolligini yanada takomallashtirishga qaratilgan sanaladi. Shuningdek, elektron tijorat 5,82 trillion dollar bozor hajmi bilan ikkinchi o‘rinda turib, 18,7 foiz yillik ko‘rsatkichida ildamlash salohiyati ko‘rsatib o‘tilgan. Xizmatlar sohasi ko‘lami juda xilma-xildir. Bunga mahsulotlarni ishlab chiqaruvchidan mijozga yetkazib berish, shu qatorda ko‘ngilochar tadbirlarni joriy etish ya’ni inson salomatligini “Ko‘zmunchoq” qabiri ostida muhofaza qilish taraqqiyotlarini o‘z aylanma trektoriyasiga jipslantiradi va xorijiy til muhitida akslantiradi. Innovatsion texnologiyalarni targ‘ib qilish aynan maishiy kundalik tarmoqlar: sartaroshxona, restoran, ta’mirlash ustaxonalari va sayyohlik agentligi bilan inovatsion chet tilini o‘rganish tapologiyasini hosil qiladi. Umumbashariy ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 483,5 mlrd so‘mni tashkil etadi va bu ko‘rsatkich esa til o‘rganishga qiziqishi b’lgan insonlarni super tezlikda bilingvistlikka moslashtiradi.

Adabiyotlar tahlili. “The role of foreign languages in development of service sphere” Ushbu maqolaning asosiy mazmuni shundan iboratki, chet tillarini to‘liqona ravishda bilish xizmat sektorining rivojlanishida hal qiluvchi omil bo‘lib, xizmat sifati, mijozlar bilan samarali, xushmuomalali xorijiy til muloqot kontekstida, korxonalarning Jahon bozoridagi ekstensiv ishtirokini amalga oshirish prinsiplari muhim ma’lumot sifatida qaraladi. Maqolada ta’kidlanishicha, chet tillarini mukammal bilgan xodim: mijoz ehtiyojini bildirishlarsiz ko‘zidan anglab yetadi, kompaniya reytingini reklama bannerlari orqali oshiradi, xalqaro hamkorlik tendensiyasini kalom sifatida qabul qiladi va chet tilini bilish salohiyatini o‘stiradi. [2]

“Trade Opportunities in Digital Services” va boshqa World Bank ma’lumotlari. Bu adabiyot shuni ta’kidlab o‘tadiki, raqamli xizmatlar va ularga talabni oshirishdagi to‘sqinliklar orasida xorijiy til ko‘nikmalarining yetishmasligi tartiboti muhokama qilinadi ya’ni til qobiliyati xizmatlar eksportida “Oltin kalit” vazifasini o‘taydi. Qolaversa, turli infratuzilma yoki transport muammolari bo‘lgan davlatlar raqamli xizmatlar orqali global savdoga chiqish va eksport hajmini oshirish imkoniga egadir [3].

“The role of foreign languages in facilitating successful professional activities (tourism)”[3]. Adabiyotning salohiyati turizm va xizmat ko‘rsatishda til va interkultural kompetensiyaning ya‘ni turizm sohasida xorijiy tillarning o‘rni amaliy ahamiyati bilan chambarchas bog‘liqdir [4].

Tahlil va natijalar. Endi statistik jihatdan tahlil qilinadigan bo‘lsa, statistik ma’lumotlar bazasining tahliliga murojaat qilinadi, rivojlangan mamlakatlarda xizmatlar sohasining YaIMidagi ulushi 70% dan oshib ketgan: AQSH – 77,6%, Germaniya – 69,3%, Yaponiya – 69,9%. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa xizmatlar sektori tez sur’atlarda o‘sib bormoqda ularga, Xitoy – 54,3%, Hindistonda – 54%, O‘zbekistonda esa 49,7% ni tashkil etadi. Bandlik ko‘rsatkichi ham shunga o‘xshash tendensiyalarni targ‘ib qiladi. AQSHda ishchi kuchining 79,5%i xizmatlar jabhasida band bo‘lsa, O‘zbekistonda bu ko‘rsatkich 55,2%ni o‘z ichiga qamrab oladi. Shuningdek, raqamli xizmatlar ulushi rivojlangan mamlakatlarda 36-42 foizni tashkil etsa, O‘zbekistonda bu ko‘rsatkich 18,3 foizni qamrab oladi va bu esa raqamli transformatsiyani tezlashtirish zaruriyatini talab qiladi.

[2] https://ipripak.org/realising-the-promise-of-service-led-growth-in-pakistan/
[3] https//transport-research.uz. sayti

Raqamli xizmatlar sohalari	Bozor hajmi (mlrd $)	Yillik o‘sish (%)	Foydalanuvchilar (mln)	Investitsiya lar (mlrd $)	Kelajak Pragnozi 2027 (mlrd $)
Elektron tijorat	5,820	18,7	3,450	245	10,340
Raqamli to‘lovlar	9,460	23,4	4,890	178	18,520
Fintech xizmatlari	340	31,2	2,340	156	890
Onlayn ta’lim	315	28,6	890	38	580
Telemeditsina	127	19,3	456	89	340
Bulutli xizmatlar	545	12,4	1,890	42	1,120
Streaming platformalar	168	21,6	1,670	67	245
Yetkazib berish xizmatlari	378	15,9	2,120	34	780
IoT xizmatlari	234	26,8	567	71	420
Sun’it intellect xizmatlari	289	38,4	1,230	98	720
Blockchain xizmatlari	196	42,7	345	23	620

Manba: OECD (2024),[4] Digital Economy Outlook, Statista (2024), Digital Market Outlook; IMF, OECD, UNCTAD, WTO (2023), Handbook on Measuring Digital Trade ma’lumotlari asosida shakllantirildi.

Moliya va sug‘urta xizmatlari 23 foizlik o‘sish bilan ikkinchi o‘rinda turadi, bu global faktor bo‘lgan yangi til o‘rganish konsepsiyasi, fintech rivojlanishi va yangi xorijiy hamda moliyaviy instrumentlarning paydo bo‘lishi bilan bo‘gliq.Qolaversa, ta’lim va salomatlik sohalarida esa 28,1 foiz miqdorda o‘sgani qayd etilgan va chet tilini bilishga intilish top darajada strategik jihatdan yuqorilab bormoqda.

Xulosa. Ushbu maqolaning mazmunidan kelib chiqib umumbashariy xulosa shuni ta’kidlab o‘tadiki, xizmat ko‘rsatish sanog‘i O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida super tezlikda rivojlanayotgan xorijiy til o‘rganish dolzarb tarmoq sifatida shakllanmoqda. Shu tufayli ham xorijiy tillarni mukammal bilgan mutaxassislar – savdo, turizm, konsultatsiya, xalqaro hamkorlik, eksport va onlayn xizmatlarda hamda milliy bozorni jahon global bozoriga moslahtirish qobiliyatiga egadir va bu amaliyot joriy etilishi shart. Mazkur sohaning rivojlanishi raqamli transformatsiyalarning yorug‘lik tezligida insonlarning ehtiyojini qondiruvchi xizmat sektorlarini targ‘ib qilishining

[4] https://www.oecd.org/en/publications/oecd-economic-outlook-volume-2024-issue-2_d8814e8b-en.html sayti

tamoyili bu til o‘rganish interaktiv metodllaridan to‘laqonli foydalanishdir. O‘zbekiston Respublikasining milyalar ichida bunday rivojlanish effekti nafaqat iqtisodiy o‘sishni ta’minlabgina qolmasdan, balki barqaror ijtimoiy rivojlanish, chet tilini o‘rganish inovatsiyasi hamda aholining farovonligini oshirishga muhim faktor sifatida gavdalanadi hamda har bir xizmat ko‘rsatish sohasiga xorijiy tillarni bilish ko‘nikmasini ham joriy etish lozim. Maqola yuzasidan kelib chiqqan holda takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir: xuddi ona tili singari, xorijiy tillarning sofligini saqlash, xorijiy tillarni innovatsion axborot texnologiyalar va kommunikatsiyalarga faol integratsiyalashuvini joriy etish va xizmat ko‘rsatish sektorining jadal rivojlanishida davlat siyosati va islohotlarni amalga oshirishni qamrab oladi. Shu tufayli ham xizmat tarmoqlarini takomallashtirishda til bamisoli tapologiya ko‘prik vazifasini o‘tashi va targ’ib qilinishi kerak.Tillarni zamonaviy usullar orqali o‘rganish til o‘rganish salohiyatini sezilarli darajada yaxshilaydi.Til o‘rganish jarayonini oson va qiziqarli qilishning innovatsion usullari quyidagilardan iborat: til o‘rganish ilovalari, onlayn til kurslari, onlayn suhbatlashish platformalari hamda audiolingual metodlardan foydalanish joiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish bo‘yicha Jahon tendensiyalarining o‘rni”,
2. The role of foreign languages in development of service sphere”, https://agir.academiascience.org/
3. “Trade Opportunities in Digital Services” va boshqa World Bank hujjatlari.World Bank. https://www.worldbank.org/ext/en/home
4. “The role of foreign languages in facilitating successful professional activities (tourism)”. https://transport-research.uz/index.php/rs-conf
5. https://sci-p.uz/ sayti
6. https://www.oecd.org/en/publications/oecd-digital-economy-outlook_f0b5c251-en.html sayti

SUN’IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

Davronova Fotima Pirnazarovna Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti (PhD), dotsent **fotimadavronova82@gmail.com** **+998974089982**
ORCID ID 0009-0005-0911-6821

Annotatsiya: Ushbu maqolada xorijiy mamlakat olimlari tomonidan ishlab chiqilqan reflektiv modellarning maktab amaliyotiga tatbiqida sun’iy intellektdan samarali foydalanish yo‘llarini yoritilgan.

Kalit so‘zlar: mahorat, sun’iy intellekt kasbiy, faoliyat, voqea, tajriba, kuzatish, tahlil, jarayon, kombenatsiyalashgan, refleksiya, kundalik, model, formula, ta’rif, teorema, aksioma, tenglama

Sun’iy intellekt odatda inson intellektini talab qiladigan vazifalarni bajara oladigan kompyuter tizimlari yig’indisi hisoblanadi. Bu vazifalarga o‘rganish, mulohaza yuritish, muammoni hal qilish, idrok etish, tilni tushunish va qaror qabul qilish kiradi. Sun’iy intellekt murakkab muammolarning yechimini topish va samaradorlikni oshirish uchun inson aql-idrokiga taqlid qiladi.

Sun’iy intellektning bir qancha turlari mavjud. Masalan, tor sun’iy intellekt – (zaif sun’iy intellekt deb ham ataladi) muayyan vazifalarni bajarish uchun mo‘ljallangan va cheklangan imkoniyatlarga ega. Boshqa tomondan, umumiy SI – (kuchli SI deb ham ataladi) hali ham faraziy tushuncha hisoblanadi. U inson kabi fikrlash va o‘rganish qobiliyatiga ega, ongli va o‘z-o‘zini anglaydigan mashinalarni rivojlantirishni nazarda tutadi.

Samaradorlik – bu maqsadga erishish uchun ishlatilgan resurslarning optimal darajada sarflanishini ifodalovchi tushuncha. Ya’ni, kamroq vaqt, kuch, yoki mablag‘ sarflab, ko‘proq natijaga erishish.

Samaradorlikka bir nechta muhim omillar ta’sir ko‘rsatadi:

Texnologiya: Zamonaviy texnologiyalar, jumladan avtomatlashtirish unumdorlikka bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Texnologiyalar jarayonlarni tartibga soladi, xatolarni kamaytiradi va vaqtni tejaydi. Texnologiyaning bir qismi sifatida sun’iy intellekt va maxsus dasturiy ta’minotlarni ishlab chiqish samaradorlikni oshirishda muhim rol o‘ynashi mumkin.

Ishchi kuchi: Xodimlarning bilim, ko‘nikma va qobiliyatlari unumdorlik uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Yaxshi tayyorlangan va malakali xodimlar yanada samaraliroq natijalar qilishadi.

Boshqaruv amaliyoti: To‘g‘ri rejalashtirish, tashkil etish va muloqot kabi boshqaruv amaliyoti samaradorlikka sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Agar kompaniya kuchli yetakchilikka va qaror qabul qiluvchi boshqaruvchiga ega bo‘lsa, bu resurslarni yaxshiroq taqsimlash va yuqori unumdorlikka olib keladi.

Sun’iy intellekt deyarli barcha sohalarda samaradorlikni oshirish uchun foydali manba bo‘lib kelmoqda. Sun’iy intellektga asoslangan texnologiyalardan foydalanish orqali kompaniyalar ish jarayonlarini tartibga solishi, samaradorligini oshirishi va resurslarni optimallashtirishi mumkin.

1. Takroriy vazifalarni avtomatlashtirish: SI asosidagi dasturlar ma’lumotlarni kiritish, hisobotlarni tayyorlash va mijozlarga xizmat ko‘rsatish so‘rovlari kabi takroriy vazifalarni avtomatlashtirishga yordam beradi. Bu esa xodimlarga ko‘proq strategik vazifalarga e’tibor qaratish uchun vaqt ajratib beradi.

2. Individual tushunchalar: SI shaxsning ish qoidalari va xohish-istaklariga asoslangan tavsiyalarni taqdim etishi mumkin. Bu xodimlarga o‘z ishining ustuvorligini belgilash va yaxshiroq qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

3. Rejalashtirish: SI alohida yig‘ilishlar, individual ish jarayoni va boshqa omillarga asoslanib, rejalar qilishni optimallashtiradi. Bu vaqt va resurslardan samaraliroq foydalanishga, ziddiyatlarni kamaytirishga yordam beradi.

4. Kuchaytirilgan hamkorlik: SI bilan ishlaydigan dasturlar real vaqt rejimida tarjima, avtomatik transkripsiya va virtual yordam ko‘rsatish orqali hamkorlik va aloqani osonlashtirishi mumkin. Bu geografik joylashuv yoki til to‘siqlaridan qat’iy nazar, jamoalarga yanada samarali ishlashga yordam beradi.

5. Ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish: SI katta hajmdagi ma’lumotlarga asoslanib, tushuncha va prognozlar taqdim etishi mumkin. Bu esa qaror qabul qilishda, tahlil jarayonida va strategik rejalashtirishni yaxshilashda yordam beradi.

Reflektiv modellar kasbiy rivojlanishning muhim omilidir, biroq shu modellarni sun’iy intellekt yordamida takomillashtirish bugungi kunda zamon talabi hisoblanadi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Quyida umumiy o‘rta ta‘lim maktablariga tajriba almashish jarayonida kuzatilgan darslardan misollar keltiramiz:

Uzaqova Guljhon Melikovna – Tayloq tumandagi 1- umumiy o‘rta ta‘lim maktabi matematika fani o‘qituvchisi darsi tahlili:

Amerikalik Josiah Willard Gibbs (Gibbs) – termodinamika va statistik fizika sohalarida muhim ilmiy tadqiqotlar olib borgan olim.

Gibbsning reflektiv modeli, o‘quv (o‘z-o‘zini tahlil qilish) uchun ishlatiladigan samarali yondashuv hisoblanadi. Ushbu modeldan foydalanishning asosiy maqsadi - tajriba, hissiyotlar va xatti-harakatlarni chuqur tahlil qilish hamda korreksiyalar kiritish asosida, shaxsiy va professional rivojlanishni ta’minlashdan iborat.

Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazidagi darslarimizda Gibbsning reflektiv modeli o‘rganilgach, uni kasbiy faoliyatlariga tatbiq etish tinglovchilarga taklif etildi. Tajriba kutulgan natijani bermadi. Bundan reflektiv modellarni yunalishlar tinglovchilarining bevosita maktabda o‘qitadigan fani bilan bog‘lab o‘rgatish zarurati paydo bo‘di.

Gibbsning reflektiv modeli 6 bosqichda amalga oshiriladi: 1) tavsif (arab tilida – mukammal ta‘rif, baho, sifatlash, maqtash ma‘nolarida ishlatiladi), 2) hissiyotlar, 3) tahlil, 4) tahliliy o‘rganish, 5) reja, 6) amaliy rejalar.

1. Tavsifda tajriba tasvirlab beriladi:

a) nima sodir bo‘ldi savoliga javob beriladi: Tayloq tuman Maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limiga qarashli 1-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi matematika fani o‘qituvchisi G.M.Uzaqovaning “Arifmetik progressiya” mavzusidagi darsi bo‘ldi.

2. Hissiyotlar:

O‘sha vaziyatdagi hissiy reaktsiyalaringizni o‘ylab ko‘ring.

• O‘zingizni qanday his qildingiz savoliga javob beriladi: darsimda nufuzli insonlar ishtirok etganligi tufayli hoyajonlandim;

• Boshqalar qanday hissiyotda edi savoliga javob beriladi:

a) darsimga kirgan mehmonlar menga xayrihohlik va faoliyatimni sinchkovlik bilan kuzatishdi;

b) dars boshida sinf o‘quvchilarida bosiqlik kuzatildi, o‘quv materialini o‘rganishga o‘tilgandan so‘ng faollik boshlandi.

3. Tahlil:

Tajribani baholang.

• Nima yaxshi o‘tdi savoliga javob beriladi: “Biz muallimlar sinfimiz o‘quvchilarini an‘anaviy ta‘limda o‘qitmaymiz, ularni ko‘proq mustaqil o‘rganishga, o‘rganganlarini sheriklari bilan hamkorlikda amaliyotga qo‘llashga yo‘naltiramiz” shiori asosida, kichik guruhlarda ishlayotganligimiz uchun darsimiz ko‘pchilik o‘quvchilarning faolligida o‘tdi.

• Qanday muammolar yuzaga keldi savoliga javob beriladi: to‘rt nafar o‘quvchilarning darsga tayyorgarligi yetarli darajada emasligi ko‘rindi.

4. Tahliliy o‘rganish:

Bunda tajriba (o‘tilgan dars) va uning natijalari chuqur tahlil qilinadi.

• Nima uchun bu sodir bo‘ldi savoliga javob beriladi: to‘rt nafar o‘quvchi darsga tayyorgarlik ko‘rishmagan.

• Qanday omillar ta’sir qildi savoliga javob beriladi: o‘quvchilar va ularning onalari bilan o‘tkazilgan individual suhbatlardan 3 nafarining dars qilmasligiga oilaviy sharoitlar sabab bo‘lganligi, bittasining o‘zi yolqovlik qilganligi aniqlandi.

5. Reja:

Tajribadan nimani o‘rganishingizni xulosa qiling.

• Boshqacha nima qilish kerak edi savoliga javob beriladi: o‘quvchilarni faqat o‘qitish bilan chegaralanib qolmasdan, dars jarayonini, o‘quvchilarning hissiyotlarini, harakatlarini chuqir kuzatish va tahlil qilish kerak.

• Yangi bilimlar nimadan iborat degan savolga javob beriladi: darsni o‘tishga tayyorgarlik ko‘rishdan boshlab, uning yakuniga qadar kechadigan barcha xatti-harakatlarni doimiy chuqur tahlil qilish, erishilgan yutuqlarni revojlantirish va ro‘y berishi mumkin bo‘lgan kamchiliklarning oldini olish zarurligi.

6. Amaliy reja:

Kelajakda nima qilishingizni rejalashtiring.

• Shunga o‘xshash vaziyatlarda qanday yondashuv qo‘llaysiz savoliga javob beriladi:

a) har bir kiyingi darsga tayyorgarlik ko‘rishda oldingi tajribalar inobatga olinadi, erishilgan yutuqlar rivojlantirilib, ro‘y bergan har qanday kamchiliklar, ularning asosiy va yondosh sabablari chuqur tahlillarga asoslangan holda bartaraf etib boriladi;

b) reflektiv kundalik yuritiladi;

c) hamkasblar tajribalari o‘rganiladi, kasbiy revojlanish kurslari, kasbiy rivojlanish seminarlarida ishtirok etiladi;

d) tegishli pedagogik, psixologik adabiyotlar o‘rganiladi.

Xulosa qilib aytganda, professional faoliyatda Gibbsning reflektiv modelidan doimiy foydalanish, ta‘limning natijadorligi va kasbiy rivojlanishning samaradorligini oshirishning muhim vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Yuqoridagi jarayonni sun’iy intellekt yordamida yanada takomillashtirih, tezlashtirish, samaradorligini oshirish mumkin. Sun’iy intellekt nafaqat bugungi kunda samaradorlikni sezilarli darajada oshiradigan amaliy vositadir, sun’iy intellekt oddiy vazifalarni avtomatlashtirish,

ma’lumotlarni samarali tahlil qilish va jarayonlarni optimallashtirish orqali shaxslarga kamroq resurslar bilan ko‘proq narsaga erishish imkonini beradi. Shunday ekan, har bir pedagogning kasbiy rivojlanishida sun’iy intellektdan maqsadli foydalanishi dars samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. “Ta’lim – 2030” Inchxon deklaratsiyasi. – Inchxon: Janubiy Koreya. 2015. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

